

INKLYUZIV TA'LIM TIZIMIDA MOTOR ALALIK BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA KORREKSION-PEDAGOGIK ISHLARNING AHAMIYATI

JDPI Maxsus pedagogika kafedrası mudiri
v.b.dots X.S.Akramova
Maxsus pedagogika, Defektologiya
(Logopediya) mutaxassisligi 1 bosqich
Tursunova Nargiza Akbarovna

Abstract: Ushbu motorli bolalar maqolasi ko'pincha dars boshida kichik va o'rta guruhlardagi maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq nuqsonlarini tuzatish bo'yicha tuzatish-pedagogik ishda inklyuziv ta'lim tizimidagi bolalarda vosita nutqini rivojlantirishga qaratilgan. Viloyat (shahar, tuman) xalq ta'limi bo'limlari tomonidan inklyuziv ta'lim tizimida nogironligi bo'lgan bolalar uchun tibbiy-psixologik-pedagogik amaliy ishlar olib borilmoqda.

Tayanch so'zlar va iboralar: tuzatish-pedagogik va davolash-sog'lomlashtirish tadbirlari, og'ir nutq nuqsonlari bo'lgan bolalar, og'ir eshitish qobiliyati buzilgan bolalar, og'ir ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar, aqliy zaif bolalar, tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar, tafakkur, vizual-amaliy tafakkur, mantiqiy tafakkur rivojlanishi, pedagoglar, psixologlar.

Motor alalik bolalarni umumta'lim sharoitida ta'lim berish ularni o'ziga xos xususiyatlari, nuqson turi, darajasi va dagi bolalar sonini e'tiborga olgan holda tashkil qilinadi. Avvalo shuni ta'kidlash joizki, o'quvchilarning yoshlari bir xil bo'lsada, lekin ular bir birlariga o'xshamaydilar. Barcha bolalarning individual psixologik, shaxs xususiyatlari, qabul qilish darajasi, zehn va idroki turlichadir

Shu bois maxsus ehtiyojga ega bo'lgan bola ta'lim olayotgan inklyuziv guruhlardagi o'quv tarbiya jarayonini tashkil etish masalasi yanada murakkabroq muammolarni hal etishni talab etadi. Inklyuziv guruhda logoped bolalarning ikoniyatini e'tiborga olib, mashg'ulotlarni shunga muvofiq rejalashtira olsa, bolalarning nogironligi bilim olishiga qanday ta'sir qilishini bilib, bu qiyinchiliklarni bartaraf etishning uslubiy yo'llaridan foydalansa, maktabgacha ta'lim va oila hamkorligini to'la yo'lga qo'ya olsa hamda nogiron bolaning kelajagiga ishonch bilan qarasagina mashg'ulot jarayoni muvaffaqiyatli kechishiga erishish

Inklyuziv ta'limga yangicha fikrlarning talqin etilishi milliy, tashkiliy va uslubiy islohotlarni talab etadi. Maxsus ta'limga muhtoj bolalar hozirgi maktabgacha ta'lim tizimida ehtiyojlari qondirilmayotgan bolalardir. Shu sababdan maktabgacha ta'limlar barcha bolalarning turli xildagi va umumiy maqsadlari, intilishlari, qiziqishlariga javob berishi va ularning bilim olishlarini ta'minlashi lozim.

Inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun umumiy ta'lim tizimiga tarkibiy o'zgartirishlar kiritish muhimdir. "Maktabgacha ta'lim" va "maxsus ta'lim"

o'rtasidagi to'siqlar olib tashlanishi kerak. Maxsus ta'lim oddiy ta'limning bir qismi bo'lishiga qaramasdan, o'zining o'quvchilari, logopedlari, boshqaruv jamoasi va ta'minot tizimidan tashkil topgan ikkita ta'lim tizimi amalda qo'llanilib kelinmoqda. Barcha o'quvchilarning talablariga javob beruvchi "Inklyuziv muassasa"da bunday tizimga ehtiyoj qolmaydi.

Islahotlar ta'lim maqsadlarining amaliyotini boshqarish mumkin, lekin ularning pedagogik amaliyotini to'g'ridan-to'g'ri boshqara olmaydi. Shu sababdan samarali bo'lishi uchun islohotlar yaxshi muhokama qilinishi va ta'lim tizimi boshqaruvchilar hamda uni amalda qo'llovchilar tomonidan ko'rib chiqilishi hamda zamonaviy texnologiyalarda fotalanib mashg'ulot o'tilishi kerak.

Inklyuziv ta'lim quyidagi shart-sharoitlarda tashkil etilishi mumkin: maktabgacha ta'limgacha tarbiya muassasalari, maktabgacha ta'lim lari (guguhlari)da umumiy va alohida yordam olish, logoped xonalarida korreksion pedagogik yordam olish, korreksion (guruh)larda maxsus ta'lim olish shaklida zamonaviy texnologiyalar asosida o'qitish.

Inklyuziv ta'lim tizimiga motor alalik bolalarni viloyat (shahar, tuman) halq ta'limi bo'limlari tomonidan tibbiy-psixologo-pedagogik komisiya faoliyatida "Respublika, viloyat, tuman tibbiy- psixologo-pedagogik komissiyalar to'g'risida"gi Nizom asosida qabul qilinadi.

Motor alalik bolalarni ta'lim berish logopedlardan ikki karra ma'suliyat bilan ishlashni talab etadi. Shuning uchun ham oliy pedagogik ma'lumotli va malaka oshirish kurslarini o'tab inklyuziv ta'lim pedagogik kvalifikatsiyasni olgan logopedlarga inklyuziv defektolog etib tayinlanishi mumkin. Inklyuziv logopedsi muassasa Ustavida belgilangan vazifalar bilan bir qatorda

-tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini korreksiyalash va me'yorga keltirish ishlarini olib boradi;

-bolalarni faolligini, zamonaviy texnologiyalar asosida ta'lim samaradorligini oshiruvchi metodlarni qo'llaydi;

-diqqat-e'tibor, xotirani, kuzatuvchanlik, sinchikovlik va boshqa qobiliyatlarni tarbiyalaydi;

-o'z-o'zini nazorat qilish malakalarini, bolalarning bilishga doir qiziqishlarini va qobiliyatini rivojlantiradi.

Tarbiyachi ish faoliyatini tashkil etishda logoped-defektologlar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda sog'lom va alohida ehtiyojli bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarni rejalashtirishi hamda shu asosida olib borishi kerak. Shuningdek, tarbiyachi alohida ehtiyojli bolani oilada tarbiyalash masalasida ota-onalarga va qonuniy vakillarga metodik yordam ko'rsatadi, kerakli ish hujjatlarini yuritadi

Psixologning faoliyati har bir bolaning ruhiy salomatligini himoyalash, ruhiy rivojlanishidagi kamchilklarini bartaraf etish va korreksiyalashga qaratiladi. Muassasa psixologi har bir bolani psixologik jihatdan tekshiradi, doimiy ravishda psixologo-pedagogik jihatdan o'rganib boradi, individual rivojlantirish dasturlarini tuzadi, alohida ehtiyojli bolani oilada tarbiyalash bo'yicha ota-onalarga maslahatlar beradi, inklyuziv ta'lim muassasasining

pedagogik hodimlariga psixologik rivojlantirish masalalarida metodik yordam ko'rsatadi.

Inklyuziv ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya olayotgan maxsus yordamga muhtoj bolalarning ayrimlari doimiy ravishda tibbiy xizmatga muhtoj bo'lishi mumkin. Inklyuziv ta'lim muassasasi shifokor-pediatri (psixonevrolog) har bir bolaning ruhiy asab holatini doimiy ravishda tekshirib boradi, zarurat bo'lganda davolash muolajalarini tavsiya etadi, korreksion pedagogik ta'lim jarayonida bolalar sog'lig'ini nazorat qiladi.

O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb etish, integrasiya asosida ta'limni tashkil etishning o'ziga xos muammolari va qiyinchiliklari bo'lsada u barcha mintaqalarda rivojlanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Akramova, X. (2020). Ақли заиф ўқувчиларни компьютер технологиялари асосида меҳнат кўникмаларини шакллантириш. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(16), 1-9. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4013

2. Akramova, X. (2020). Коррекционно-педагогические обобщенности формирование навыков здорового образа жизни у детей с умственной отсталостью в семейных условиях. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 15(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/918

3. Akramova, X. (2020). Социально-педагогическая работа с детьми дошкольного возраста. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 7(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/674

4. Akramova, X. (2020). Didactic Foundations of Labor Activity for Children with Intellectual Disabilities. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 7(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/682

5. Akramova, X. (2020). Методика формирования общих трудовых навыков у умственно отсталых учеников через компьютерные мультимедийные программы. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(12), 1-7. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3182

6. Akramova, X. (2020). Methods of developing general work skills in mentally retarded students through information programs. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 7(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/697

7. Akramova, X. (2020). Peculiarities of the labor activity of mentally retarded pupils. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 15(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/897

8. Akramova, X. (2020). Aqli zaif o'quvchilarda axborot dasturlari vositasida umumiy mehnat ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 15(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/916

9. Akramova, X. (2020). Замонавий мультимедиа воситаларидан фойдаланиш - муваффакият гарови . *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(12),

1-5. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3162

10. Акрамова, Х. (2020). Мактабгача ёшдаги болалар билан олиб бориладиган ижтимоий педагогик фаолият технологияси. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(16)*, 1-5. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3994

11. Акрамова, Х. (2020). Mehnat darslarida aqli zaif bolalar nutqini o‘stirishning o‘ziga xosligi. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(16)*, 1-5. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4025